

## SIGIRLARNING SUT MAXSULDORLIGI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

**Toreshova Amina Ubbiniyazovna**  
**Tursunbayeva Iroda Shukrullo qizi**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya:** *Hayvonlarning oziq moddalarga bo'lgan ehtiyojini aniq bilish va ratsional oziqlantirishning ilmiy jihatdan asoslangan tizimini ishlab chiqish nafaqat ularning potensial mahsuldorligini yuqori darajada namoyon qilish, balki chorvachilikda oзуqalarni ishlatilish samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada sigirlarning sut maxsuldorligi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati mavzusida bir qator ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qishloq xo'jaligi, sigirlar, sut, chorvachilik, fermer xo'jaliklari, naslchilik.*

Respublikamizning barcha viloyatlarida fermer xo'jaliklarida chorvachilikni barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun kuplab muhim tadbiriarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, chorvachilik fermalarini yanada kengaytirish, naslchilik ishlarini yanada takomillashtirib xayvonlar zotini yaxshilash, bu tarmoqda progressiv, hozirgi zamon texnologiyasini va ilg'orlar tajribasini keng joriy etish, yem-xashak baza» barqarorligini oshirish va yanada mustahkamlash kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Chorvachilikda sut mahsulotlarini samarali ishlab chiqarishga sut mahsuldorligi yuqori darajada bo'lganda, hayvonlarning hamma oziq moddalariga bo'lgan talabini qondiradigan ratsional oziqlantirish va muntazam ravishda nasi olish orqali erishish mumkin. Sigirlarni boqishda qilingan xatolar mahsuldorlikning pasayishiga, ayniqsa, mahsuldor hayvonlarda kasallanish xavfining oshishiga olib keladi. Tirik vazni 500 kg bo'lgan va 4000 kg sut beradigan sigir uning organizmidagi quruq modda niqdori taxminan 2,6 marta oshadigan shunday quruq moddani sut bilan ajratadi. 1 kg sut hosil bo'lishi uchun sigir emchagidan 400 I atrofidagi qon o'tishi kerak.

Sog'in sigiriardan tug'ishdan keyin, kalsiy almashinuvida qisqa muddatli buzilish bo'lishi mumkin. Bu sigiriarning kalsiyga bo'lgan talabi keskin ortgan paytda sut hosil qilishning boshlanishi bilan bog'liq. Ba'zi hayvonlar organizmi uning ratsiondan ancha samarali foydalanish yoki seletdan jalb etish yo'li bilan zaruriy miqdordagi elementni qabul qilishga qodir bo'lmaydi. Bunday hollarda kalsiy mushaklardan tarxib olinadi, chunki bu element ularning normal harakatlanishi uchun zarur. uning yetishmasligi hayvonlarning harakatlanishida qiyinchilik tug'diradi (sigir harakatsiz yotadi, unda muskullar qaltirashi kuzatiladi). Agar talab qilingan davolash o'tkazilmasa. bunday hollarda kalsiy almashinuvining buzilishi butun laktatsiya davrida sog'inning sezilarli

darajada pasayishiga olib keladi. Favqulodda holatlarda sigirlamig nafas olishi va yurak muskullari zararlanib, oqibatda hayvon komaga tushib qoladi. Ba'zan bu kasallik tufayli hayvon o'lati kuzatiladi. Kasal sigirlar tana harorati, ko'pincha, 37°C dan tushib ketadi. Kasallik tug'ishdan keyingi parez yoki gipokalsiylik deb ham ataladi. Bunday kasallik bilan, asosan, qari mollar kasallanadi, chunki ularda paratgormon ajralishi juda sekin o'tadi va suyaklarda mobilizatsiya qilingan kalsiy oz bo'ladi. Tug'ishdan oldingi davrda kalsiy bilan ortiqcha ta'minlanish ham tug'ishdan keyingi parez bilan kasallanish xavfini oshiradi. Bu kasallikka genetik moyillik isbot qilingan. Shuning uchun tug'ishdan keyingi parez kuzatilgan sigirlardan pod a tashkil qilishda foydalanmaslik kerak. Davolash ishlari qancha erta boshlansa, bu kasallikning sut mahsuldorligiga va keyingi laktatsiya davridagi mahsuldorlik qobilitiga shuncha kam salbiy ta'siri bo'ladi. Davolash kalsiy tuzi rastvorini (boroglukonat kalsiy yoki boshqa kalsiy organik tuzlari) magniy, fosfor va glukoza bilan birga ukol qilish orqali o'tkaziladi. Nekrozni va uyushib qolishning oldini olish uchun kasallangan hayvonlarni kuniga bir necha marotaba u yoniga va bu yoniga ag'darish kerak. Kasallangan sigirlarni sekinlik bilan sog' ib tashlash ham profilaktik ta'sir ko'rsatadi. Tug'ishdan oldingi davrdagi sigirlar ratsionidagi fosforning optimal tarkibi kalsiy absorbsiyasini barqarorlashtiradi. Avval ham ushbu kasallik kuzatilgan sigirlarda tug'ishdan keyingi parez profilaktikasi uchun tug'ishga yaqin qolganda bir marta 5 min. IE vitamin DJ ni ukol qilish foydalidir. Agar tug'ish o'z muddatida amalga oshmasa, bu muolajani yana qaytarish zarur. Tug'ishdan keyingi parez kasalligini oldini olishning yana bir imkoniyatitug'ishdan cldingi davrda ratsicndagi kationlar va anionlar nisbatini kuzatib borishdir. Kalsiyni rezerv to'qimalardan mobilizatsiya qilish (avvallo. suyaklardan) va uning ichakdagi absorbsiya darajasini orttirish uchun kaliy va natriy ionlarinig xlor va oltingugurt ionlariga nisbati 100-\50 mg-ekv. darajasida bo'lishi shart.

Ko'k ozuqadan foydalanilganda, ozuqaning iste'mol qilinishi va hayvonlarning oziq moddalar bilan ta'minlanishida konserva qilingan ozuqadan foydalanilgandan ko'ra, ko'proq kuchli o'zgarishga duch keladi. QO'shimcha pichan yoki somon bilan oziqlantirish yo'li bilan kletchatkalar yetishrnasligini qoplash mumkin, bu yaylovda boqish mavsumida sut tarkibidagi yog' miqdorini barqarorlashtiradi. Ko'k ozuqada proteinning yuqori darajada bo'lganligi tufayli kelib chiqadigan ortiqchasin~ imkoni boricha, qO'shimcha ravishda makkajo'xori silosi yoki yuqori darajada energiya mavjud bo'lgan konsentrat ozuqalar berish yo'li bilan muvozanatga keltirish lozim. Ozuqa sifati o'simlikning vegetatsiya davriga bog'liq. Ratsion bilan birga oziq moddalarining bir tekis qabul qilinishini ta'minlash uchun ko'p ozuqaning bir qismi bahor mavsumida silos qilinadi. Yaylovda ozuqaning iste'mol qilinishi maysazorning botanik tarkibi va poda boqishning tashkil qilinishiga bog'liq. Boshhoqli o'simliklarga va bedaga boy maysazorlarda ko'p miqdorda ozuqa yeyiladi. Poda haydaladigan maydon shun day bo'lishi kerakki, fermada ozuqa bilan boqilgan holatda yaylovda 10% atrofida ozuqa qolishi kerak. Ozuqa zaxiralaridan eng yaxshi foydalanishga poda haydaladigan yaylovni elektr to'siqlar yordamida chegaralash bilan erishiladi. Noqulay

ob-havo sharoitida ozuqa iste'mol qilish miqdori 2 kg QM ga kamayib ketishi sababli, hayvonlar ho' I ozuqani yetarli darajada yaxshi chaynay olmaydi. Oraliq ekinlardan foydalanish (raps, xantal, xashaki karam, kungaboqar yoki o'tlar aralashmasi) yaylovda hayvonlarni boqish mavsumini uzaytirish bilan birga, konserva qilingan ozuqaning iqtisod qiladi. Oraliq ekinlarning ko'pchiligi proteinga boy bo'lib, ko'pincha, ularda yuqori darajada nitrat mavjud bo'ladi (ayniqsa, kuzda). Ularda proteinga nisbatan kletchatkaning mavjudligi juda oz miqdorda bo'lib, ratsion tuzishda buni hisobga olish zarur. Sigirlarni bunday ozuqaga sekinlik bilan o'rgatish kerak. Oraliq ekinlarni yig'ib-terib olishni shunday o'tkazish kerakki, bunda ozuqaning ifloslanish darajasi minimal bo'lsin. Bunday ozuqani muzlagan holda hayvonlarga berish mumkin emas. Ozuqa tarkibidagi nitratlar (belgilangan me'yor 0,5% bo'lgan paytda quruq moddada 4% gacha) va ta'm sifatini pasaytiruvchi komponentlarining yuqori darajada berilishi bir kunda bir bosh qora mol hisobiga 5 kg QM dan oshmasligi kerak. Hayvonlarga bunday ozuqalarni katta miqdorda berish nitrat bilan zaharlanish xavfini keltirib chiqaradi, sababi hosil bo'lgan nitratlar mikroorganizmlar tomonidan tez o'zlashtirilmaydi. Oraliq ekinlardan foydalanishda ratsioning energiya va kletchatka bo'yicha muvozanatlashuvini kuzatish lozim.

Sog'in sigirlarda ular sog'ib olingandan keyin, suvga bo'lgan talab yuqori darajada bo'ladi. Ular sog' ish aparatlaridan ajratilgandan keyin, bevosita kunduzgi me'yorning 30% ni ichishlari mumkin. Shuning uchun hayvonlar sug'oriladigan qurilmalar yetarli darajada suv bilan ta'minlangan bo'lishi, shu bilan birga, muzlab qolishdan himoyalangan bo'lishi kerak. Hayvonlar ichadigan suv sifatiga ham odamlar ichadigan ichimlik suviga bo'lgan talablar qo'yiladi. Suv musaffo, gigiyenik tomondan toza bo'lishi, tarkibida sanoat korxonalaridan chiqqan zararli moddalar, ortiqcha miqdorda zaharli elementlarning organik birikmalari va tuzlari (nitratlar, pestitsidlar qoldiqlari, natriy va kaliy tuzi, mis, kadmit, qo'rg'oshin, simob va boshqalar) bo'lmasligi kerak. Agar hayvonlar suvni ochiq havzalardan ichsa, bu havzalarda parazitlar bo' Imasligini kuzatish lozim. Suv ichish joyi loyqalanishning oldini olish va hayvonlar bir-birini parazitlar bilan Uigar fassioli) zararlantirishidan qochish maqsadida mahkamlangan vajihozlangan bo'lishi kerak.

Suv-insonlar va hayvonlarda modda almashinuvi uchun zarur bo'lgan eng muhim birikma. Suv, umaman, bo'lmagan taqdirda, hayotning davomiyligi ovqat bo'lmagan holdan farqli o'laroq, bir necha kunni tashkil qiladi, xolos. Organizmdagi suvning 10 dan bir qismi yo'qotilishi esa o'limga olib keladi. Moddalar almashinuvida suv turli funksiyalarni bajaradi. U tashuvchi vosita, erituvchi va hujayralarda bosim hosil qiladigan modda sifatida harakat qiladi, shuningdek, organizmda, ayniqsa, yuqori haroratda uni regulyatsiya qilishda qatnashadi. Organizmdagi barcha substrat o'zgarishlar suv mihitida sodir bo'ladi. U moddalar almashinuvining so' nggi mahsulotlarini, ayniqsa, siydik bilan, so'ngra, shuningdek, axlat va safro bilan chiqarib tashlash uchun foydalaniladi. Suvga bo'lgan talab turli omillar bilan aniqlanadi. Shunday qilib, suvga bo'lgan talab ratsion tdrkibidagi quruq nlodda va tuz, shuniiiigdek,

havo harorati yuqori bo'lganda, suvning ter bilan bug'lanib chiqib ketishi hisobiga yuzaga keladigan issiqlikni qaytarish zaruratini ta'minlash ehtiyoji yuqori bo'lgan sari ortadi. Laktatsiya va bo'g'ozlik ham hayvonlarning suvga talabini orttiradi. Suv bilan yetarli darajada ta'minlanmaganda, hayvonlarda ishtaha va mahsuldorlik pasayadi. Suvga bo'lgan talab bir kamerali oshqozonga ega hayvonlar uchun quruq modda 2-3 kg miqdorda va kavsh qaytaruvchi hayvonlar uchun 4-5 kg miqdorda ratsiondagi iste'mol qilingan 1 kg quruq modda hisobidan kelib chiqib, neytral havo harorati uchun belgilanadi. Laktatsiya davrida hosil qilinib, ishlab chiqariladigan 1 kg sutga 2-4 kg suv qo'shimcha taiab qilinishini hisobga olish zarur. Keltirilgan me'yorlar ozuqa bilan iste'mol qilinadigan suvni ham o'z ichiga oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliboyeva, A., & Turoпова, S. (2022). QORAMOLLARNING SUT MAHSULDORLIGI VA HISOBGA OLIISH USULLARI. Академические исследования в современной науке, 1(15), 124-127.
2. Soyibjonov, A. T., Ahmatova, R., Ergasheva, Z., Xudoyberganova, G., & Mashrapova, R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARI MAXSULDORLIGIGA ZOOIGIENIK TALABLAR TA'SIRI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 2), 16-20.
3. Choriyevna, J. N. (2023). GOLSHTEYN SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGINI OSHIRISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 112-114.
4. Sattorov, F. R., & Abdullayev, J. O. (2022). TAJRIBA GURUHIDAGI SIGIRLARNING O 'SISH VA RIVOJLANISH KO 'RSATKICHLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 877-878.
5. Nortasheva, M. A., Shomatov, S., & Xasanova, U. (2022). TAJRIBA GURUHLARDAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI KO 'RSATKICHLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(2), 28-30.